

O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTINI QIYOSIY O'RGANISH- O'QUVCHILARNING INTELEKTUAL SALOXIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILI

Feruz Turolova Bexzodovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti magistranti.
+99899.8014993

Annotatsiya: Ushbu maqolada, o'zbek va jahon adabiyotini qiyosiy darajada o'rganish o'quvchilarda intellektual salohiyatni shakllantirish omili sifatida qay darajada ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, qiyosiy daraja, o'quvchi, intellekt, intellektual salohiyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается система литературного воспитания, нравственно-эстетические методы, основанные на средствах мировой литературы.

Ключевые слова: литературное образование, образовательная система, мировая литература, мировая литературная система, этика, эстетика, воспитание, нравственно-эстетика.

Annotation: In this article, the system of literary education, the moral-aesthetic methods based on the medium of world literature are discussed in this system.

Key words: literary education, educational system, world literature, world literary system, ethics, aesthetics, education, moral-aesthetics.

Bizga ma'lumki, hozirda, ko'pchilik pedagoglar o'z o'quvchilarini intellektual salohiyatini oshirish uchun turli samarali yo'llarni o'rganib borishmoqda. Pedagoglar o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimida yangicha texnologiyalar asosida dars berishni xohlaydilar, ular o'quvchilarni e'tiborini tortishni, va ularga qiziqarli bo'lgan ilmlarni berishni istaydilar.

Ayni shu davrda, o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida juda ko'p qiyinchiliklarga uchraladi, chunki hozirgi zamon yoshlarida, o'quvchilarida, aksarlarida, o'zbek adabiyotini tushunishi uchun dunyo qarash juda torlik qiladi va tushunishga qiynaladi, yosh o'quvchilarning ko'pchiligi qiyinchilikga uchragan fanlarini o'qimaslik niyatida turli bahonalardan foydalanishadi, buning oqibatida o'zbek adabiyotini o'rganuvchilar soni kamayadi. Achinarlisi shundaki, ta'lim tizimimizda juda ko'p muammolar vujudga kelmoqda, buning sababi esa, eng ko'zga ko'rinadigan, eng fojiali sababi poraxo'rlik ekani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Korrupsiya ta'lim tizimini tubdan kemirayorgan bir ko'rinmas va yoqimli omildek

go'yo, garchi shu poraxo'rlik insonlarga yoqsada, unig oqibati hech kimga foyda keltirmagan, chunki bu dunyo mollari inson ko'zini ko'r, quloqlarini kar qila oladi. Ta'lim tizimidagi poraxo'rliklarni yo'qotganimizda edi, tizimimiz juda mukammal bo'lgan bo'lardi.

O'zbek adabiyotini o'quvchilarga tanishtirish jarayonida, ularda, avvalo shu fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otib olishimiz lozim, qiziqtirish esa, pedagogni oldidagi eng oliy maqsadlardan biri bo'lishi darkor. O'zbek adabiyoti millatimizning ma'naviy-madaniy boyliklaridan biri hisoblangani bois, uni o'qitish ta'lim tizimiga kiritilgan.

«Adabiyot o'qitish metodikasi» pedagogik fanlar tizimiga mansub o'laroq, ilmning alohida turi bo'lish uchun qo'yiladigan uch talabning barchasiga javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi o'rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o'quv fani tomonidan o'rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, ya'ni adabiyot darslarida badiiy asarlar o'qitilishining optimal va samarali yo'llarini tadqiq etish, adabiy ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi fani o'ziga xos ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Adabiyot o'qitish metodikasi badiiy adabiyot o'qitilish jarayoniga bog'liq qonuniyatlarni o'rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg'unlashadi. Ya'ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug'ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg'ulligi ma'lum. Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta'lim jarayonida adabiyotdan nimani va qanday o'qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Shu ma'noda adabiyot o'qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta'lim uchun zarur hisoblanib, uning o'z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud. [1, p – 7]

Qiyosiy adabiyot kontekstida dunyo adabiyotining o'rni adabiy tanqidchilarning turli muhokamalariga sabab bo'lmoqda. Muayyan mamlakatning mentalitetiga mos kelmaydigan g'arb yoki sharq adabiyoti namunalarida ilgari surilgan g'oyalarning o'quvchilar ongiga ta'sir qilishini hisobga olgan holda, darsliklar kontentini tuzish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, jahon adabiyoti namunalarini mahalliy va global miqyosda uyg'unlashtirilgan metodologiyadan foydalanish va o'quvchilar uchun maqbul yondoshuvni taqdim etish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelinayotgani tabiiy hol. Agar mavzu o'quvchi yoshiga mos, milliy mentalitetga xos tarzda tanlansa, madaniyatlar aro yaqinlikka, o'quvchi tasavvur doirasining kengayishi va xayolan dunyoning qaysidir chekkasida yashash imkoniyati beriladi. [2, p – 1]

Bundan tashqari jahon adabiyotida 17-18 yoshli bolaning ruhiyatiga ta'sir qiladigan, hayotga qarashlarini o'zgartiradigan, jiddiy qarorlar qabul qilishga undaydigan asarlar talaygina. “Yangi dastur bo'yicha 5-sinf dan boshlab izchil tarzda o'rganiladigan adabiyot mazmuni sinfdan-sinf ga murakkablashib boradi. Quyi sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodidan namunalar, o'zbek adabiyoti

namoyondalarining asarlari berilsa, yuqori sinflarda jahon adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan tanishtirish ustun turadi. Adabiy materiallar davriy tizimda emas, oddiydan murakkabga boruvchi mavzular atrofida birlashtirilgan” bo’lishi DTSda nazarda tutilgan. Ammo yuqori sinflarda, 10-11- sinflarda jahon adabiyoti namunalari sonida o’sish kuzatilmaydi. “Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’rganilishi ko’zda tutilgan adabiy ta’lim asosida hech kimga o’xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, xulosa chiqara biladigan, qahramon holatini his etadigan, o’zgaralar dardiga sherik bo’ladigan, ularni tushunadigan va shu asnoda o’zini ham “kashf” eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi.” Bundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo’lsak, 11-sinf o’quvchisi “Choliqushi asarini o’qib, qahramonlar holatini his etishi, hali sevgi-muhabbat nimaligini anglamay turib, qahramonlar holatini his qilishi, va o’zini ham Feride yoki Kamron timsolida qayta “kashf” qilishi o’rta ta’lim tizimining ko’zlagan maqsadlaridan biri sifatida tushiniladi.

Yuqoridagi mana shu ikki adabiyotlarni qiyosiy darajasida ulardagi solishtiruvlar orqali ta’limga turli o’zgartirishlar kiritish samarasida, o’quvchilarda yanayam intellektual salohiyatini oshirishimiz kerak. Chunki, o’quvchi bir adabiyotni qayta qayta o’qiyversu, u zerikadi. Jahon adabiyoti bilan birgalikda o’quvchiga bilim berish natijasida uning ongida mantiqiy fikrlash va dunyo qarashlar kengayishi mumkin, buning samarasi o’laroq, o’quvchi yanada ko’p adabiyotlarni o’qishni, ham o’zbek, ham jahon adabiyotlarida bo’lgan bilimlarini yanada oshirishga harakat qiladi, albatta.

Hozirgi yangi O’zbekistonda, aynan ta’lim tizimida yanada yangicha bo’lgan, turli tashabbuslardan foydalanib kelinmoqda. Bularning barchasi, o’quvchilarda intellektual salohiyatni oshirish imkonini kengaytirish uchun yaratilgan sharoitlardir.

O’quvchi fikrining mustaqilligi uning sarmahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bog’liqdir. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g’oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo’lsa, bunday fikr sarmahsul, samarali hisoblanadi. Ma’lum vaqt oralig’ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko’lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarning kuchliligi) – tafakkur mustaqilligi darajasini o’lchash mezonini bo’lib xizmat qiladi. Ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o’zi tomonidan kuzatilmaydi. O’quvchilarda fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish o’qituvchining vazifasi hisoblanadi. Buning uchun o’qituvchidan ziyraklik, ta’lim jarayonining har bosqichida har bir o’quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi holos.

Adabiyot darslarida mustaqil fikrlashga o’rgatishning o’ziga xos xususiyatlari. Ma’naviy-ma’rifiy buloqlarimiz hisoblangan Qur’oni Karim va muborak Hadislarda ham, Imom alBuxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg’oniy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg’ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad

Yassaviy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning qarashlarida ham odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir fikrlar ustuvorlik qiladi. Mustaqillik davrida adabiyot o'qitish metodikasi sohasida tadqiqot olib borgan Q. Yo'ldoshev, S. Matjonov va M. Mirqosimova singari olimlarning ilmiy ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga ma'lum darajada e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

O'quvchining qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nmagan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib uning shaxsiyatida ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr, intellektual salohiyat egasini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasi demakdir. «Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani», – degan edi italiyalik ertakchi adib J. Rodari.

Ko'pincha, ta'lim amaliyotida o'quvchiga tayyor bilimlarni «yig'ib oluvchi»lik roli topshiriladi. Ta'limning bunday bir yoqlama tashkil etilishi xotiraning mexanik faoliyatiga tayangan bo'lib unda tuyg'ular, fikrlar ishtirok etmaydi, binobarin, bunday ta'lim o'quvchini faol ijodiy ishlashga o'rgatmaydi.

Ikki xil adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi intellektini mustaqilligiga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalillashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytishga o'rgatish talab qilinadi. Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo'l qo'ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o'rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga yetaklashi; o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni yechishga yo'naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi muhim vazifa sanaladi.

Qolaversa, mana shu yo'ldagi o'quvchilarni intellektual salohiyatini yanada kengaytirishimiz uchun, o'quvchilarni kitobga yo'naltira olishimiz kerakligidir. O'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirishning yana bir yo'li ularni rag'batlantirishdir. O'quvchilar ma'lum bir sinfni tamomlasalar ularga maqtov yorliqlari beriladi. Ana shu yorliqlar o'rniga taniqli shoir yoki yozuvchilarning kitoblari sovg'a qilinsa, foydaliroq bo'ladi. Qolaversa, taniqli shoir yoki yozuvchilar bilan o'quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish, ular bilan yosh kitobxonlar o'qigan asarlar yuzasidan suhbatlar uyushtirish ham o'quvchilarning badiiy so'zga muhabbatini oshirishi tabiiy va buni rivojlantirish, yo'lga qo'yish darkor.

Хулоса.

Хулоса etib shuni ta'kidlash mumkinki, yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda kitobdan oqilona foydalanish, buni to'g'ri tashkil eta bilish esa oilada otananing, ta'lim muassasalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning burchidir. Hozirgi zamonda ularadgi salohiyatlarni kengaytirishda ko'p bilimlarni juda ham qiziqarli metodikalar yordamida berish lozim, uning uchun tizimlarni qayta ishlab chiqish kerak.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. ADABIYOT O'QITISH METODIKASI. [http://library.navoiy-uni.uz/files/adabiyot_o'qitish_metodikasi_q_husanboyeva , r_niyozmetoa_2.pdf](http://library.navoiy-uni.uz/files/adabiyot_o'qitish_metodikasi_q_husanboyeva_r_niyozmetoa_2.pdf)
2. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA JAHON ADABIYOTINI O'QITISH MUAMMOLARI. <file:///C:/Users/Durdona/Downloads/umumiy-o-rta-ta-limda-jahon-adabiyotini-o-qitish-muammolari.pdf>
3. ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI. <file:///C:/Users/Durdona/Downloads/adabiy-ta-limda-innovatsion-pedagogik-texnologiyalardan-foydalanishning-amaliy-ahamiyati.pdf>
4. Ботирова Ш. Бадий психологизм критерийлари ва замонавий ўзбек романчилиги. Tafakkur ziyosi, 2020. 2(2), 146-148-б.
5. Ботирова Ш, Инсон ва ҳаёт воқелигини метафорик уйғунлаштиришда бадий психологизмнинг ўрни. Сўз санъати, 2020. 2(3), 19-23-